

## NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA GULLARGA OID SO'ZLARNING LEKSIKOGRAFIK TASNIFI

O'zbekiston Milliy universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi

**Shodiyorova Guldon Akram qizi**

Ilmiy rahbar: **Yusupova Tuymajon**

ÖzMU nemis filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

### **Annotatsiya**

Bu maqolada nemis va o'zbek tillarida gullar bilan bog'liq so'zlar qanday guruhlanishi va lug'atlarda qanday berilishi ko'rib chiqiladi. Ikkala tildagi gul nomlarining ma'nosi, kelib chiqishi va lug'atlardagi o'rni solishtiriladi. Natijada ikkala til o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar aniqlanadi.

### **Annotation**

Dieser Artikel untersucht, wie blumenbezogene Wörter im Deutschen und Usbekischen klassifiziert und in Wörterbüchern dargestellt werden. Die Bedeutung, Herkunft und lexikografische Erfassung von Blumennamen in beiden Sprachen werden verglichen. Dabei werden Gemeinsamkeiten und Unterschiede zwischen den beiden Sprachsystemen herausgearbeitet.

**Kalit so'zlar:** leksikografiya, gul nomlari, nemis tili, o'zbek tili, semantik tasnif, qiyosiy tilshunoslik.

**Schlüsselwörter:** Lexikografie, Blumenwortschatz, deutsche Sprache, usbekische Sprache, semantische Klassifikation, kontrastive Linguistik.

Har bir tilda tabiat bilan bog'liq so'zlar alohida o'rin tutadi. Gullar esa insonlar hayotida azaldan muhim rol o'ynagan — ular sevgi, quvonch, motam va go'zallikning ramzi bo'lib kelgan. Shu sababli har qanday tilda gullarga oid so'zlar doimo boy va rang-

barang bo'ladi. Nemis va o'zbek tillari bir-biridan juda farq qiladi: biri german, ikkinchisi turkiy til oilasiga kiradi. Lekin ikkalasida ham gullarga oid leksika boy tizimni tashkil etadi. Bu maqolada ana shu so'z boyligini solishtirish va lug'atlarda qanday tartibda berilishini aniqlash maqsad qilingan.

Maqola uchun materiallar sifatida nemis tilining "Duden" va "Wahrig" lug'atlari, o'zbek tilining "O'zbek tilining izohli lug'ati" va "Botanika terminlari lug'ati" dan foydalanildi. Tahlil uchun asosan semantik (ma'no) va etimologik (so'zning kelib chiqishi) usullar qo'llanildi.

Nemis tilida gullarga oid so'zlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh — gul nomlarining o'zi: die Rose (atirgul), die Tulpe (lola), die Lilie (nilufar), das Veilchen (binafsha), die Sonnenblume (kungaboqar). Bu so'zlarning aksariyati ikkita so'zdan yasalgan murakkab so'zlardir. Masalan, Sonnenblume so'zi Sonne (quyosh) + Blume (gul) dan iborat — ya'ni "quyosh guli". Ikkinchi guruh — gul qismlari nomlari: das Blütenblatt (gulbarg), die Knospe (kurtak), der Kelch (kosachak), der Staubfaden (changchi ip). Uchinchi guruh — gul parvarishi bilan bog'liq so'zlar: blühen (gullash), verwelken (so'lish), pflanzen (o'tqazmoq), die Gärtnerei (bog'bonlik).

Nemis tilidagi gul nomlarining kelib chiqishi turlichadir. Nemis tilida gul nomlari ko'pincha tabiat hodisalari, ranglar yoki shakllar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, Vergissmeinnicht (unutma-meni) guli o'zining nomi bilan ham she'riy bir tuyg'uni ifodalaydi, Maiglöckchen (may qo'ng'irog'i) esa may oyida ochilishi va qo'ng'iroq shaklidagi ko'rinishi bilan nomlangan. Nemis tiliga ko'plab egzotik gul nomlari sayohatchilar va savdogarlar orqali kirgan. Masalan, Dahlie so'zi shved botanigi Anders Dahl sharafiga qo'yilgan, Hortensie esa fransuzcha Hortense ismidan olingan bo'lib, XVIII asrda Yevropa bog'larida mashhur bo'lgan. Ko'pchiligi qadimgi german tilidan o'sib chiqqan: Blume so'zi proto-german \*blomon- shakliga borib taqaladi. Ba'zilari esa lotin yoki yunon tilidan olingan: Rose — lotincha rosa, Lilie — lotincha liliun, yunon leirion

so'zidan. Qiziqarlisi, Tulpe so'zi turkcha "tülbend" (salla) so'zidan kelib chiqqan va XVI asrda Yevropa tillariga kirgan.

O'zbek tilida ham gullarga oid so'zlar boy va qadimiy qatlamni tashkil etadi. O'zbek tilida gullarga oid so'zlarning bir qismi Sharq mumtoz adabiyoti orqali kirgan. Xususan, Alisher Navoiy asarlarida yasmin, nasrin, rayhon kabi gul nomlari tez-tez uchraydi va bu so'zlar o'sha davrdan buyon adabiy tilda mustahkam o'rin egallagan. Bundan tashqari o'zbek tilida gul nomlari nafaqat botanik atama, balki she'riyat va musiqa tilida ham keng qo'llaniladi. "Lola" va "nilufar" so'zlari, masalan, qiz ismi sifatida ham beriladi, bu esa ushbu gul nomlarining xalq madaniyatida qanchalik chuqur ildiz otganini ko'rsatadi. Gul nomlaridan iborat birinchi guruhga atirgul, lola, rayhon, yasmin, nilufar, binafsha, qizg'aldoq, navroz guli kiradi. Bu so'zlar lug'atda izohli ta'rif, ko'pincha esa sinonimlar bilan birga beriladi. O'zbek tilida "gul" so'zi juda ko'p yangi so'zlar yasaydi: gulzor (gul bog'i), guldasta, guldon, gulbarg, gultoj, gulob (atirgul suvi). Bu so'zlar lug'atlarda alohida mustaqil so'z sifatida o'z o'rniga ega. Bundan tashqari, "gul" so'zi ko'chma ma'nolarda ham ishlatiladi: "gulday yigit", "guli ochilgan" kabi iboralar bunga yaqqol misol.

O'zbek tilidagi gul nomlari uch asosiy qatlamdan iborat. Birinchisi — qadimiy turkiy qatlam: lola, qizg'aldoq kabi so'zlar juda qadim zamonlardan beri ishlatib kelinadi. Ikkinchisi — forsiy-tojikcha qatlam: atirgul (fors. "atir" + "gul"), yasmin, nilufar kabi so'zlar forsiy adabiyot ta'sirida o'zbek tiliga kirgan. Uchinchisi — arabcha qatlam: zafaron (arab. za'faran), rayhon (arab. rayhan) kabi so'zlar islom madaniyati orqali kirib kelgan.

Ikkala tilni solishtirgan holda, bir qancha qiziqarli xulosalarga kelish mumkin. O'xshashliklar nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, ikkala tilda ham gul nomlari bir necha semantik guruhga bo'linadi, lug'atlarda izohli va tarjimali tarzda beriladi hamda frazeologik iboralarda faol ishtirok etadi.

Ikki tilni solishtirganda, madaniy farqlar ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Nemis madaniyatida atirgul sevgining, binafsha esa sodiqlikning ramzi hisoblansa, o'zbek madaniyatida lola — yigitlik va jasorat, nilufar esa poklik va go'zallikning timsoli sifatida

qabul qilinadi. Farqlar esa ancha ko'zga tashlanadi. Nemis tilida ikkita so'zni birlashtirib yangi so'z yasash (masalan: Sonnenblume, Gartenrose) juda keng tarqalgan usul. O'zbek tilida esa qo'shimcha qo'shish orqali so'z yasash (gulzor, guldasta) ustuvorroq. Etimologik jihatdan ham ikki til farq qiladi: nemis tilida german, lotin va yunon qatlamlari ustun bo'lsa, o'zbek tilida turkiy, forsiy va arabcha qatlamlar asosiy o'rinni egallaydi. Lug'at tuzish uslubida ham tafovut bor: nemis lug'atlari so'zning talaffuzi va grammatik shakllariga ko'proq e'tibor bersa, o'zbek lug'atlari sinonimlar va misol gaplarni boy tarzda keltiradi.

Nemis va o'zbek tillarida gullarga oid leksika juda boy va qiziqarli tizimni tashkil etadi. Har ikki tilda ham bu so'zlar uch guruhga bo'linadi: gul nomlari, gul tuzilishiga oid atamalar va gul parvarishi bilan bog'liq so'zlar. Biroq so'z yasash usullari va etimologik tarkib jihatidan ikkala til bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu tahlil kelajakda nemis-o'zbek botanika lug'atini tuzish uchun foydali asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunday lug'at tarjimonlar, botaniklar va ikkala tilda ta'lim olayotgan talabalar uchun amaliy qo'llanma bo'la oladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Duden. Das große Wörterbuch der deutschen Sprache. — Mannheim: Bibliographisches Institut, 2012.
2. Wahrig, G. Deutsches Wörterbuch. — Gütersloh: Bertelsmann Lexikon Verlag, 2006.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 tomlik. — Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006–2008.
4. Hamidov, H. Botanika terminlari lug'ati. — Toshkent: Fan, 2001.
5. Kluge, F. Etymologisches Wörterbuch der deutschen Sprache. — Berlin: De Gruyter, 2011.
6. Shamsiyev, P. Leksikologiya asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 1978.
7. Reformatskiy, A.A. Vvedeniye v yazykoznaniye. — Moskva: Prosveshcheniye, 1967.